

**“ROBO CODERS 2019”**  
**respublika tanlovini o‘tkazish to‘g‘risida**  
**NIZOM**

“ROBO CODERS 2019” respublika tanlovini o‘tkazish to‘g‘risidagi ushbu Nizom (keyingi o‘rinlarda - Nizom) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 10 yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5624-sonli Farmoni 13-bandi ijrosini ta’minlash maqsadida ishlab chiqilgan va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida iste’dodli yoshlarni aniqlash uchun aniq sohalar (ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik, davlat boshqaruvi va boshqalar) bo‘yicha tanlov (keyingi o‘rinlarda - tanlov) o‘tkazilish tartibini belgilaydi.

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Tanlov robototexnika uchun dasturlash sohasida iste’dodli yoshlarni aniqlash uchun o‘tkaziladi.
2. Tanlovning asosiy vazifalari quyidagilar:  
axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida iste’dodli yoshlarni aniqlash va qo‘llab-quvvatlash;  
yoshlarning ishbilarmonlik faolligini rivojlantirish;
3. Tanlovda ushbu Nizom bilan belgilangan tartibda ariza topshirgan yoshlar ishtirok etishlari mumkin (keyingi o‘rinlarda - ishtirokchilar).
4. Tanlovda ishtirok etishda individuallikka qat’iy rioya etiladi.

**2-bob. Tanlovda ishtirok etish uchun hujjatlarni topshirish tartibi**

5. 2019 yilning 4 fevralidan 15 fevraligacha ishtirokchilar ro‘yxatga olinadi.
6. “Axborot texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy qilishni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha “Mirzo Ulugbek Innovation Center” innovatsiya markazi direktsiyasi” MChJ ning (keyingi o‘rinlarda – Innovatsion markaz) rasmiy sayti [muic.uz](http://muic.uz) da elektron ro‘yxat orqali ishtirok etish uchun ariza topshiriladi.
7. Tanlov arizasiga ishtirokchining anketasi kiradi (F.I.Sh., tug‘ilgan vaqti, o‘qish/ish joyi, elektron pochta manzili, telefon raqami, mutaxassisligi (ro‘yxatga olishni tasdiqlash uchun).
8. Noto‘g‘ri ma’lumotlar taqdim etilgan holatda nomzodlar tanlovda ishtirok etish huquqidan mahrum etiladi.

**9-bob. Tanlovni tashkil etish**

9. Tanlov o‘z kasbiy darajasini oshirib, bir-biri bilan bellashadigan yosh dasturchilar o‘rtasida o‘tkaziladi. Har bir ishtirokchi olgan vazifasiga muvofiq robototexnika uchun o‘z kodini yozadi. Tanlov vazifalari robototexnika ishlash prinsiplariga (harakat, vazifalarni berish va shu kabilari) asoslanadi.

10. Innovatsion markaz O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi (keyingi o‘rinlarda - Agentlik) bilan kelishgan holda tashkiliy qo‘mita va tanlov hakamlari hay‘atini shakllantiradi.

11. Tanlov hakamlari hay‘ati oliy o‘quv yurtlari professor-o‘qituvchilari, biznes hamkorlar, davlat hokimiyati organlari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi mustaqil ekspertlar vakillaridan iborat tarkibda shakllantiriladi.

12. Tashkiliy qo‘mita quyidagi vazifalarni bajaradi:

- tanlov e‘loni matnini tasdiqlaydi;
- arizaga ilova qilinadigan zarur ma‘lumotlar to‘yxatini tasdiqlaydi;
- arizani qabul qilish muddatlarini belgilaydi;
- tanlovni o‘tkazish joyini tasdiqlaydi;
- tanlovni o‘tkazish uchun matematik-mantiqiy vazifalar ro‘yxatini tasdiqlaydi;
- tanlovning final bosqichini tashkillashtiradi;
- g‘olib va sovrindorlarni tasdiqlaydi.

13. Tanlov hakamlari hay‘ati quyidagi vazifalarni bajaradi:

- tanlov ishtirokchilari arizalarini ko‘rib chiqadi;
- tanlovni o‘tkazish shaffofligiga javob beradi;
- tanlov finali yakunini o‘tkazadi;
- g‘olib va sovrindorlarni aniqlaydi.

#### **4-bob. Tanlovni o‘tkazish tartibi**

14. Tashkiliy qo‘mita tanlovda ishtirok etish uchun arizalarni topshirish muddati yakunlanganidan keyin 2 ish kuni davomida tanlov ishtirokchilarini tanlab oladi.

15. Tanlov boshlangunga qadar tanlov ishtirokchilarini tanlab oladi.

16. Tanlov ikki bosqichda o‘tkaziladi:

I bosqich – 2019 yil 17 fevral – [roboticslab.tuit.uz](http://roboticslab.tuit.uz) saytida tanlovning 1-turi o‘tkaziladi:

tanlov ishtirokchilariga mantiqli hisoblash va robototexnika bo‘yicha algoritimga asoslangan vazifalar beriladi;

“roboticslab” tizimi to‘g‘ri javoblarni, algoritmning noyobligini va vazifani yechishga ketgan vaqtni aniqlaydi;

1-tur natijalari bo‘yicha tanlov finalchilari aniqlanadi;

II bosqich – 2019 yil 24 fevral – tanlov finali:

tanlov ishtirokchilariga mantiqli hisoblash va robototexnika bo'yicha murakkabroq algoritmgga asoslangan vazifalar beriladi;

“roboticslab” tizimi to'g'ri javoblarni, algoritmning noyobligini va vazifani yechishga ketgan eng qisqa vaqtni aniqlaydi;

final turi natijalari bo'yicha tanlov g'oliblari aniqlanadi.

17. Tanlov 3 tayosh toifasi bo'yicha o'tkaziladi:

15 yoshdan 20 yoshgacha;

21 yoshdan 25 yoshgacha;

26 yoshdan 30 yoshgacha.

18. Tanlov dasturi 3 tanominatsiya bo'yicha 9 tafaxrli o'rinni o'z ichiga oladi:

Birinchi o'rin – 3 ta g'olib;

Ikkinchi o'rin – 3 ta g'olib;

Uchinchi o'rin – 3 ta g'olib.

Rag'batlantiruvchi nominatsiyalar:

Eng tez coder;

Eng sodda algoritm;

Eng yosh dasturchi.

19. Natijalarni baholash uchun mezonlar:

- vazifalar yechimining to'g'riligi;

- vazifalar yechimining tezligi;

- algoritmning soddaligi va noyobligi.

20. Tanlov hakamlari hay'ati tur yakuniy natijalari asosida tanlov g'olib va sovrindorlarini aniqlaydi.

21. Tanlov hakamlari hay'ati qo'shimcha rag'batlantiruvchi nominatsiyalarni belgilash huquqiga ega.

22. Tanlov natijalari final tanlash kuni hakamlar hay'ati a'zolarining yig'ilishi yakunlari bo'yicha e'lon qilinadi.

23. Tanlov natijalari qat'iy hisoblanadi va qayta ko'rib chiqilmaydi.

## **5-bob. Tanlovning informatsion ta'minoti**

24. Tanlovning informatsion ta'minoti Agentlik, Innovatsiya markazi va boshqa manfaatdor tashkilotlarning rasmiy veb-saytlari orqali amalga oshiriladi.

### **6-bob. Tanlov g'olib va sovrindorlarini taqdirlash tartibi**

25. Tanlovning g'olib va sovrindorlari quyidagicha taqdirlanadi:

26. Birinchi o'rin – Noutbuk HP 250 G6 i3-6006 4/500;

27. Ikkinchi o'rin – Noutbuk AcerExtensaEX2519 N3160 4/500;

28. Uchinchi o'rin – Smartfon XiaomiRedmiNote 5 64 GB.

29. Rag'batlantiruvchi nominatsiyalar – LogitechX300 simsiz akustika, SonySRS-XB10 simsiz akustika va Defender FreeMotion B611 quloqchinlar.

Qolgan barcha ishtirokchilar esdalik diplomlari bilan taqdirlanadi. Alohida holatlarda axborot texnologiyalari yo'nalishlari bo'yicha

Mirzo Ulugbek Innovation Center bazasidagi masofaviy o'qish loyihalarida bepul o'qish taklif etilishi mumkin.

26. G'olib va sovrindorlarni tantanali taqdirlash marosimi tadbirlarning final bosqichi kunida o'tkaziladi.

27. Sertifikatlar va pullik mukofotlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi direktori o'rinbosari va "Axborot texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy qilishni qo'llab-quvvatlash bo'yicha "Mirzo UlugbekInnovationCenter" innovatsiya markazi direktsiyasi" MChJ, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti vakillari tomonidan amalga oshiriladi.

### **7-bob. Yakuniy qoidalar**

28. Tanlovda ishtirok etish bilan bog'liq xarajatlar (tanlov o'tkazilish joyiga jamoaning kelishi va ketishi) ishtirokchilarning yoki yo'naltiruvchi tashkilotlarning hisobidan amalga oshiriladi.

29. Innovatsion markaz tanlovni o'tkazish bilan bog'liq barcha hujjatlarning qonunchilikda o'rnatilgan muddatlarda saqlanishini ta'minlaydi.

30. Tanlov tashkiliy qo'mitasi va hakamlar hay'ati ishtirokchilar, hakamlarning boshqa a'zolari bilan maxfiy kelishuviga yo'l qo'yilmasligiga hamda boshqa noqonuniy xatti-harakatlariga javob beradi.